MULTIDISCIPLINARY JOURNAL: FUNDAMENTAL RESEARCH SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 02. ISSUE 06. JUNE 2026.
ResearchBib Impact Faktor: 13.943 ISSN: 3060-513X

ERTAK VA SHE'RIY ASARLAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA'LIMDA OGZAKI VA YOZMA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Umarova Shamsiyabonu Suvonovna
Buxoro Xalqaro universiteti 1- bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ertak va she’riy asarlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Bolalar adabiyoti janrlarining til tarbiyasidagi ahamiyati, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ijodiy, interfaol va innovasion metodlarning o‘rni tahlil qilingan. Mazkur usullar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, badiiy nutqni egallash va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar:ertak, she’riy asar, bolalar adabiyoti, nutq madaniyati, boshlang‘ich ta’lim, og‘zaki nutq, yozma nutq, interfaol metodlar, ijodiy fikrlash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda ona tili ta’limining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Bu borada bolalar adabiyotining ertak va she’riy janrlari alohida o‘rin tutadi. Ertaklar o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi, obrazli fikrlashini rivojlantiradi, so‘z boyligini kengaytiradi va nutqda badiiy ifodalardan foydalanishga undaydi. She’riy asarlar esa talaffuz, intonasiya, ritm va badiiy nutq unsurlarini o‘rgatishda, shuningdek, bolalarda yod olish, ifodali o‘qish va badiiy tafakkurni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur janrlar orqali bola nafaqat o‘qiydi, balki tinglaydi, tasavvur qiladi, tahlil qiladi va o‘z fikrini bayon etadi.

Boshlang‘ich ta’limda ertak va she’rlar asosida og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayoni, avvalo, ifodali o‘qish va tinglashga asoslanadi. O‘qituvchining namunali

o‘qishi, audio ertak va she’rlarni tinglash, dramatizatsiya va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarda talaffuz madaniyati, sahnalashtirish ko‘nikmalari va muloqot kompetensiyasi shakllanadi. Shuningdek, o‘quvchi va asar qahramoni o‘rtasida dialog tashkil etish, savol-javob, bahs-munozara, ertak mazmuni bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish, badiiy til vositalari ustida ishlash, tez aytishlar, maqol va matallarni o‘rganish jarayonlari ham nutq o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Yozma nutqni rivojlantirish esa o‘quvchining fikrlash, matnni anglash, uni qayta bayon qilish va mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini tarkib toptirishni o‘z ichiga oladi. Ertak yoki she’r mazmunini qisqa va to‘liq qayta hikoya qilish, voqealar ketma-ketligini aniqlash, asosiy g‘oyani belgilash, personajlarga munosabat bildirish, ertakka yangi yakun yaratish, qahramonlarga maktub yozish kabi topshiriqlar yozma nutqni rivojlantirishda juda samaralidir. Bundan tashqari, rasm asosida hikoya tuzish, berilgan so‘zlardan gap, gaplardan matn yaratish, imlo va punktuasiya bo‘yicha mashqlar o‘tkazish ham savodxonlikni oshiradi.

Hozirgi zamon ta’lim jarayonida innovasion texnologiyalar, interfaol metodlar va media vositalari nutq madaniyatini shakllantirish jarayonini yanada boyitadi. Animatsion ertaklar, audio she’rlar, raqamli matnlar, interfaol o‘yin platformalari va virtual o‘qish muhiti o‘quvchilarda nafaqat qiziqish uyg‘otadi, balki o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu metodlar o‘quvchining darsga bo‘lgan motivasiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash, tahlil va ijod qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Natijada ertak va she’riy asarlar asosida olib borilgan muntazam va mazmunli ishlar o‘quvchilarda ravon, mantiqiy va ifodali og‘zaki nutqni shakllantiradi, to‘g‘ri va savodli yozish malakasini rivojlantiradi, badiiy til boyliklaridan foydalanish ko‘nikmasini oshiradi, kitob o‘qishga mehr uyg‘otadi va eng muhimi — o‘quvchini

madaniyatli muloqot qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalaydi. Demak, ertak va she’riy asarlar boshlang‘ich ta’limda nutq madaniyatini rivojlantirishning tabiiy, samarali va pedagogik jihatdan asoslangan metodik vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova M., Nurmonova R. *Ona tili o‘qitish metodikasi*. — Toshkent.
2. Safarova N.O. Didaktik o'yinlarning samaradorligi. "O'ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 30 noyabr 2022 y.
3. Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. NDA. T., 2005